

Navoiy viloyatida oliy ta'lim

2025/2026- o'quv yili boshiga


- I. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
- II. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
- III. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar
- IV. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'qituvchilarsiz)
- VI. Oliy ta'lim ko'rsatkichlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari

O'zbekiston Respublikasida **oliy ta'lim** uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi hisoblanadi va respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni


(tegishli o'quv yili boshiga)



Navoiy viloyatida 2025/2026- o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni **5 tani** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yili boshiga nisbatan **1 taga**, ya'ni **25,0 % ga** ko'paygan.

Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga)



2025/2026- o' quv yili boshiga viloyatda **3 ta** nodavlat oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan va 2024/2025- o' quv yiliga nisbatan ularning soni **1 taga**, ya'ni **50,0 % ga** oshgan.

**Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o' quv yili boshiga)

	Oliy ta'lim tashkilotlari soni		shundan: nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari	
	Jami (birlik)	umumiy soniga nisbatan % da	Jami (birlik)	umumiy soniga nisbatan % da
Navoiy viloyati	5	100,0	3	100,0
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	4	80,0	2	66,7
Zarafshon	-	-	-	-
G'ozg'on	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	1	20,0	1	33,3
Konimex	-	-	-	-
Qiziltepa	-	-	-	-
Navbahor	-	-	-	-
Nurota	-	-	-	-
Tomdi	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	-
Xatirchi	-	-	-	-

2025/2026- o' quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari Navoiy shahrida (**4 ta**) va Karmana tumanida (**1 ta**) qayd etilgan.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari Navoiy shahrida (**2 ta**) va Karmana tumanida (**1 ta**) qayd etilgan. Qolgan shahar va tumanlarda oliy ta'lim tashkilotlari mavjud emas.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)


[Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)

II. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar

Navoiy viloyatida 2025/2026- o' quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni **9,2 ming nafarni** tashkil etdi. 2024/2025- o' quv yiliga nisbatan mazkur ko' rsatkich deyarli o'zgarmagan.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni

(tegishli o' quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o' quv yilida qabul qilingan qizlar soni **5,5 ming nafarni**, o' g' il bolalar soni esa **3,7 ming nafarni** tashkil etgan. Bunda qizlarning ulushi qabul qilingan talabalar umumiy sonining **59,8 % ni**, o' g' il bolalar ulushi esa **40,2 % ni** tashkil etgan. Ta'kidlash joizki, qabul qilingan qizlar soni o' g' il bolalar sonidan yuqori bo' lib kelmoqda. Oldingi o' quv yiliga nisbatan qabul qilingan qizlar soni **0,4 ming nafarga**, yoki **7,8 % ga oshgan** bo' lsa, o' g' il bolalar soni esa **0,4 ming nafarga**, yoki **9,8 % ga** kamaygan.

2025/2026- o' quv yili boshiga bakalavriat ta'lim dasturlariga **8,5 ming nafar** qabul qilingan bo' lib, bu 2024/2025- o' quv yili boshiga nisbatan **0,3 ming nafarga**, yoki **3,4 % ga** kam bo' lgan.

Ko' rib chiqilayotgan davrda magistratura ta'lim dasturlari bo' yicha o' sish kuzatilgan. Magistraturaga qabul qilinganlar soni 2024/2025- o' quv yilidagi **0,4 ming nafardan** 2025/2026- o' quv yilida **0,7 ming nafarga** yetdi, ya' ni **0,3 ming nafarga**, yoki **75,0 % ga** oshdi. Magistraturaning umumiy qabuldagi ulushi **7,6 % ga** yetgan bo' lsa, bir yil avval bu ko' rsatkich **4,3 % ni** tashkil etgan.

**Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Jami qabul qilingan talabalar soni	jamiga nisbatan ulushi, % da	qabul qilingan talabalar sonidan:		jami qabul qilingan talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalav- riyatga qabul	magist- raturaga qabul
Navoiy viloyati	9,2	100,0	5,5	3,7	8,5	0,7
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	7,5	81,5	4,4	3,1	6,9	0,6
Zarafshon	-	-	-	-	-	-
G'ozg'on	-	-	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	1,7	18,5	1,1	0,6	1,6	0,1
Konimex	-	-	-	-	-	-
Qiziltepa	-	-	-	-	-	-
Navbahor	-	-	-	-	-	-
Nurota	-	-	-	-	-	-
Tomdi	-	-	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	-	-	-
Xatirchi	-	-	-	-	-	-

2025/2026- o'quv yili boshiga, oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni Navoiy shahrida – **7,5 ming nafar** va Karmana tumanida – **1,7 ming nafar** qayd etilgan.

Gender kesimida qabul qilingan qizlar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lgan. Qabul qilingan talabalar tarkibida qizlarning ulushi Navoiy shahrida (**58,7 %**) va Karmana tumanida (**64,7 %**) kuzatilgan. Shu bilan birga, o'g'il bolalar ulushi Navoiy shahrida (**41,3 %**) va Karmana tumanida (**35,3 %**) kuzatilgan.

Oliy ta'lim darajalari kesimida bakalavriyatga qabul qilingan talabalar soni Navoiy shahrida (**6,9 ming**) va Karmana tumanida (**1,6 ming**) qayd etilgan.

Magistratura dasturlari bo'yicha Navoiy shahrida (**0,6 ming**) va Karmana tumanida (**0,1 ming**) qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriyat yo'nalishlariga qabul qilingan talabalar soni](#)


[Oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura mutaxassislariga qabul qilingan talabalar soni](#)

III. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar

2025/2026- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni **42,5 ming nafarni** tashkil etgan. 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan mazkur ko'rsatkich **0,5 ming nafarga**, yoki **1,2 % ga** kamaygan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yilida qizlar soni **25,3 ming nafarni**, o'g'il bolalar soni esa **17,2 ming nafarni** tashkil etgan. Shunday qilib, talabalar umumiy sonida qizlarning ulushi **59,5 % ni**, o'g'il bolalarning ulushi esa **40,5 % ni** tashkil etgan. Ta'kidlash joizki, qizlar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lib, bu oliy ta'limda qizlarning ishtiroki kuchayib borayotganini ko'rsatadi. 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan qizlar soni **0,2 ming nafarga**, yoki **0,8 % ga** oshgan, o'g'il bolalar soni esa **0,7 ming nafarga**, yoki **3,9 % ga** kamaygan.

2025/2026- o'quv yili boshiga bakalavriat talabalari soni **41,5 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **0,9 ming nafarga**, yoki **2,1 % ga** kamaygan.

Magistratura talabalari soni esa sezilarli darajada oshgan. 2025/2026- o'quv yilida ular **1,0 ming nafarni** tashkil etib, 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **0,4 ming nafarga**, yoki **66,7 % ga** ko'paygan.

**Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar
sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Jami talabalar soni	jamiga nisbatan ulushi, % da	tahsil olayotgan talabalar sonidan:		jami talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalavriatda o'qiyotganlar	magistraturada o'qiyotganlar
Navoiy viloyati	42,5	100,0	25,3	17,2	41,5	1,0
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	31,3	73,6	18,6	12,7	30,4	0,9
Zarafshon	-	-	-	-	-	-
G'ozg'on	-	-	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	11,2	26,4	6,7	4,5	11,1	0,1
Konimex	-	-	-	-	-	-
Qiziltepa	-	-	-	-	-	-
Navbahor	-	-	-	-	-	-
Nurota	-	-	-	-	-	-
Tomdi	-	-	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	-	-	-
Xatirchi	-	-	-	-	-	-

2025/2026- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni Navoiy shahrida (**31,3 ming**) va Karmana tumanida (**11,2 ming**) qayd etilgan.

Gender kesimida qizlar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lgan. Talabalar tarkibida qizlarning ulushi Navoiy (**59,4 %**) va Karmana tumanida (**59,8 %**) kuzatilgan. Shu bilan birga, o'g'il bolalar ulushi Navoiy shahrida (**40,6 %**) va Karmana tumanida (**40,2 %**) bo'lgan.

Oliy ta'lim darajalari kesimida bakalavriat talabalari soni Navoiy shahrida (**30,4 ming**) va Karmana tumanida (**11,1 ming**) qayd etilgan. Magistratura dasturlari bo'yicha Navoiy shahrida (**0,9 ming**) va Karmana tumanida (**0,1 ming**) qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(jami\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(qiz bolalar\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

[Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(jami\)](#)

[Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)


[Kechki ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)

[Sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)

IV. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

2025- yilda oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari soni **8,5 ming nafarni** tashkil etgan. 2024- yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich **2,8 ming nafarga**, yoki **49,1 % ga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



2025- yilda bitiruvchilar orasida qizlar soni **5,0 ming nafarni**, o'g'il bolalar soni esa **3,5 ming nafarni** tashkil etgan. Shunday qilib, bitiruvchilar umumiy sonida qizlarning ulushi **58,8 % ni**, o'g'il bolalarning ulushi esa **41,2 % ni** tashkil etgan. Ta'kidlash joizki, qizlar bolalar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lgan. 2024-yilga nisbatan qizlar soni **1,4 ming nafarga**, yoki **38,9 % ga**, o'g'il bolalar soni esa **1,4 ming nafarga**, yoki **66,7 % ga** oshgan.

2025- yilda bakalavriat bitiruvchilari soni **8,3 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan **2,7 ming nafarga**, yoki **48,2 % ga** ko'paygan.

Magistratura bitiruvchilari soni ham oshgan. 2025- yilda ular **0,2 ming nafarni** tashkil etib, 2024- yilga nisbatan **0,1 ming nafarga**, yoki **2 barobarga** oshgan.

**Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari
sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi**
(2025-yil uchun, ming kishi)

	Jami bitiruvchilar soni	jamiga nisbatan ulushi, % da	bitiruvchilar sonidan:		jami bitiruvchilar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalav- riatni tugat- ganlar	magist- raturani tugat- ganlar
Navoiy viloyati	8,5	100,0	5,0	3,5	8,3	0,2
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	7,5	88,2	4,5	3,0	7,3	0,2
Zarafshon	-	-	-	-	-	-
G'ozg'on	-	-	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	1,0	11,8	0,5	0,5	1,0	-
Konimex	-	-	-	-	-	-
Qiziltepa	-	-	-	-	-	-
Navbahor	-	-	-	-	-	-
Nurota	-	-	-	-	-	-
Tomdi	-	-	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	-	-	-
Xatirchi	-	-	-	-	-	-

2025- yilda oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari soni Navoiy shahrida (**7,5 ming**) va Karmana tumanida (**1,0 ming**) qayd etilgan.

Gender kesimida qizlar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lgan. Bitiruvchilar tarkibida qizlarning ulushi Navoiy shahrida (**60,0 %**), o'g'il bolalarning ulushi (**40,0 %**) bo'lgan. Karmana tumanida esa qizlar va o'g'il bolalar ulushi teng bo'lib, har biri **50,0 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim darajalari kesimida bakalavriat bitiruvchilari soni Navoiy shahrida (**7,3 ming**) va Karmana tumanida (**1,0 ming**) qayd etilgan. Magistratura dasturlari bo'yicha Navoiy shahrida **0,2 ming nafar** bitiruvchi tayyorlangan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(jami\)](#)


[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

V. Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'qituvchilarsiz)

2025/2026- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlaridagi professor-o'qituvchi xodimlar (o'qituvchilarsiz) soni **1,4 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **0,3 ming nafarga**, yoki **27,3 % ga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi
xodimlari (o'qituvchilarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yilida professor-o'qituvchi xodimlari orasida ayollar soni **0,7 ming nafarni (50,0 %)**, erkaklar soni ham **0,7 ming nafarni (50,0 %)** tashkil etgan. 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan ayollar soni **0,2 ming nafarga**, yoki **40,0 % ga**, erkaklar soni esa **0,1 ming nafarga**, yoki **16,7 % ga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchi
xodimlari (o'qituvchilarsiz) sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Jami professor-o'qituvchi xodimlar soni	jamiga nisbatan ulushi, % da	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Navoiy viloyati	1,4	100,0	0,7	0,7	50,0	50,0
shaharlar:						
Navoiy	1,1	78,6	0,6	0,5	54,5	45,5
Zarafshon	-	-	-	-	-	-
G'ozg'on	-	-	-	-	-	-
tumanlar:						
Karmana	0,3	21,4	0,1	0,2	33,3	66,7
Konimex	-	-	-	-	-	-
Qiziltepa	-	-	-	-	-	-
Navbahor	-	-	-	-	-	-
Nurota	-	-	-	-	-	-
Tomdi	-	-	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	-	-	-
Xatirchi	-	-	-	-	-	-

2025/2026- o' quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlaridagi professor-o' qituvchi xodimlar (o' rindoshlarsiz) soni Navoiy shahrida (**1,1 ming**) va Karmana tumanida (**0,3 ming nafar**) kuzatilgan.

Gender kesimida professor-o' qituvchi xodimlari (o' rindoshlarsiz) orasida erkaklar va ayollar soni deyarli teng bo' lgan. Erkaklarning ulushi Navoiy shahrida (**45,5 %**) va Karmana tumanida (**66,7 %**) kuzatilgan.

Shu bilan birga, ayollar ulushi Navoiy shahrida (**54,5 %**) va Karmana tumanida (**33,3 %**) tashkil etgan.

Mavzuga doir ko' rsatkichlar:

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o' qituvchi xodimlari (o' rindoshlarsiz) soni

**VI. Oliy ta'lim ko' rsatkichlari bo' yicha uslubiy tushuntirishlar
va metama'lumotlar**

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim yo' nalishlari va mutaxassisliklari bo' yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq, fanlarning dasturlari va o' quv rejalarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari;
- oliy ta'limni normativ-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta' minoti bo' yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- oliy ta'limni boshqarish bo' yicha vakolatli davlat organlari, shuningdek, ularga bo' ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Oliy ta'lim **bakalavriat** ta'lim yo' nalishlari va **magistratura** mutaxassisliklari bo' yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta' minlaydi.

Bakalavriat oliy ta'lim yo' nalishlaridan biri bo' yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko' nikmalar beradigan, o' qish davomiyligi kamida uch yil bo' lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo' yicha o' qish davomiyligi kamida bir yil bo' lgan oliy ta'limdir.

O' zbekiston Respublikasida oliy ta'lim bo' yicha statistik ma'lumotlar yillik statistika hisoboti – **1 oliy ta'lim shakli** "Oliy ta'lim tashkilotining hisoboti" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur statistik hisobot mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining statistik hisoboti qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, bitiruvchilar, professor-o'qituvchi xodimlar soni, ta'lim shakllari va turlari, shuningdek, oliy ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, professor-o'qituvchi xodimlar soni va moddiy-texnika bazasi kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Ta'lim tashkilotlariga qabul qilish – ushbu o'quv yilida o'qishga qabul qilinganlarning sonini ko'rsatadi. Qabul qilinganlar soniga ikkinchi yilga qoldirilganlar va avval o'qiganlar orasidan qaytib kelganlar kiritilmaydi.

Ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni – oliy ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan va o'quv yili boshida ro'yxatda turganlar soni.

Ta'lim tashkilotlarini bitirganlar – ta'lim tashkilotlarida o'quv kursini to'liq tugatgan va tegishli ma'lumot (mutaxassislik)ga ega bo'lgan shaxslar soni.

Professor-o'qituvchi xodimlari soni – oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga ta'lim berish bilan shug'ullanuvchi, shuningdek, o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar soni.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-O 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Navoiy viloyati
statistika boshqarmasi
Aholi turmush darajasi va
ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: Navoiy shahar,
Amir Temur ko'chasi, 4
El. manzil: nv@navstat.uz
Tel.: 79-223-54-98

